

**DUDUQLANUVCHI BOLALARDA O'YINLAR ORQALI
MUSTAQIL NUTQNI SHAKLLANTIRISH**

Karimova Nadiya Baxoniddinovna

*Namangan Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti
Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada duduqlanuvchi bolalarga pedagogik-psixologik ta'lif berish ularni nutqni o'yinlar asosida shakllantirish va rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan hamda mavzuga doir xulosa va takliflar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Duduqlanish, korreksiya, alalik bola, ritmik nutq, kommunikativ, didaktik o'yinlar, logopedik ritmika.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое и психологическое воспитание детей с отставанием в росте, а также формирование и развитие игровой речи а также выводы и предложения по теме.

Ключевые слова: Заикание, коррекция, церебральный паралич, ритмическая речь, коммуникативные, дидактические игры, логопедическая ритмика.

Abstract: This article addresses pedagogical and psychological education of stunted children as well as the formation and development of play-based speech as well as conclusions and suggestions on the topic.

Keywords: Stuttering, correction, cerebral palsy, rhythmic speech, communicative, didactic games, logopedic rhythmics.

Kirish

Duduqlanish- bu nutq aparati muskullarining tortishishi natijasida nutq sur'at-hangining buzilishidir.

Inson o'z fikrlarini nutq orqali bayon etadi. Nutq-tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatidagi muayyan yashash shaklidir. Inson nutqining to'liq va ravon bo'lishi esa jamiyat bilan muvaffaqiyatli uyg'unlashishini ta'milaydi. Hozirgi vaqtida Defektologiya (lot. Defekt- kamchilik, nuqson. Yun. logos-ta'limot, fan, o'rganish) sohasida nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni nutqini shakllantirish hamda takomillashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda maxsus metodikaga asoslangan o'yin usullari qo'llaniladi. Duduqlanuvchi bolalar esa o'yinda o'zlarini boshqacha tutadilar. Bu bolalar jur'atsiz, o'z kuchiga ishonmaydilar, o'yinda o'zlariga maqsad qo'yishni bilmaydilar. Ular ko'pincha o'yinda tomoshabin bo'lishadi yoki bo'ysunuvchi ro'llarini o'zlariga olishadi. Duduqlanishning kuchayishi bilan bolalar odamoviroq bo'lib qoldilar, tengdoshlari bilan o'yin o'ynashdan oddiygina bosh tortadilar. Ba'zida shunday hodisalar ham kuzatiladiki, duduqlanadigan maktabgacha yoshdagil alalik(grek. a-inkor. Laliya-nutq.) bola boshqa bolalar bilan muloqotga kiraolmaydi, o'z xulqiga tanqid nazari bilan qaramaydi.

Nutqida nuqsoni bor bolalarning o'yin o'ynash faoliyati faqat kattalarning yo'naltirib turuvchi so'zining bevosita ta'siri ostida va undan har kungi majburiy rahbarlikni shakllanishida paydo bo'ladi. Birinchi bosqichda o'yin harakatlari juda

chegegaralangan nutq muloqotida davom etishi, o'yin hajmining qisqarishini va uning syujetini chegegaralashni vujudga keltiradi. Lug'at boyligini o'stirish uchun va hayotiy tajribasiga yo'naltirilgan maxsus tashkil qilingan **nover** nutqida buzilishlari bor bolalarda o'yinni mustaqil paydo qilib bo'lmaydi. Asosiy bilim va taassurotlaarni bolalar faqat maqsadga yo'naltirilgan o'yin o'ynash faoliyatini jarayonida oladilar.

Ye.I.Tixeyevaning fikricha, maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning barcha qobilyatlarini rivojlaningan holda nutqni egallashning juda ahamiyatli va muhim qolbilyatiga e'tiborini qaratish darkor: "Chunki nutqni muntazam o'rgatish, nutq va tilni metodik rivojlanirish maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiya ishlarining asosini tashkil qilmog'i lozim".[1]

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchilarning nutqi, umumiyligi va nutqiy hatti-harakat korreksiyasi (tuzatish) nafaqat mashg'ulotlarda, balki o'yinlar vositasida ham amalga oshiriladi. O'yinlarning asosiy maqsadi esa bolalarga atrofdagi predmetlar, ularning shakli, hajmi, rangi, qo'llanilishi to'g'risidagi tasavvurlarini, taassurot doirasini aniqlash hamda kengaytirish, qiziquvchanlikni, bilish qobiliyatlarini rivojlanirish, harakatlarni sezilarli darajada takomillashtirishdan iborat. O'yin vaqtida atrofdagilarga nisbatan do'stona munosabat, o'yinchoqlar va materiallarga ehtiyojkorona xarakati, o'rnatilgan tartib va qoidalarga rioya etish odati tarbiyalanadi, o'rtoqlarining qiziqishlari va fikrlarini inobatga olish, muammolarni adolatli hal etish, ziddiyatlarni chetlab o'tish ko'nikmasi shakllanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental extiyojlariga tayanadi.

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Ayrim hollarda esa bola o'z o'yinidan oldin kattalar mehnatiga taqlid qiladi, keyinchalik ularning mehnatida qatnashadi. Muharrir "O'yin yosh avlodni mehnatga, jismoniy va aqliy rivojlanishiga, atrofdagi hodisa hamda voqealarni analiz-sintez qilish jarayonini takomillashuviga turtki bo'ladi". Chunki o'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil etaolsagina u ijobjiy natijalarga erishish mumkin. A.P. Usava shunday degan edi: "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish-ularni to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashda o'yin shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'r ganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi"[2].

Maktabgacha tarbiya yoshdagi rivojlanuvchi nutqning asosiy funksiyalaridan biri kommunikativ (muloqotga kirishish) funksiya yoki muloqot funksiyasidir. Ilk bolalik chog'idanoq bola nutqdan muloqot vositasi sifatida foydalananadi. Dududqlanuvchi bolalardagi nutq kamchiligin korreksiyalashda mustaqil nutqning ahamiyati kattadir.

Duduqlanuvchilarda mustaqil nutqni tarbiyalashda to'g'ri nutq shakllarining zaruriy uzlusizligiga rioya qilinadi. Dastlab nazm matnnini bir-biriga bog'liq holda qaytarish orqali o'qish jarayonida yengil ritmik nutq tarbiyalanadi. Keyin qiyin holatlarda logoped (nutqdagi nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha mutaxassis) yordamida mustaqil o'qish, so'z oralatib yoki matnni ayrim bo'laklarga bo'lib, kimningdir yordamida, bir xil ohangda o'qish; dialogli matnni o'qish; tinish belgilarini hisobga olib, shartli uzunlikka amal qilib to'xtash orqali o'qish; o'r ganilgan she'rni

talaffuz etish tavsiya qilinadi.

A.A.Leontevning qayd etishicha, bola nutqini rivojlantirish-bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, ularni o'zlashtirish til qobilyatini shakllantirishni talab qiladi.[3]

Mustaqil nutq oldindan tayyorlangan (she'r, qayta hikoya qilish, mashg'ulot mazmunini bayon qilish, ko'rgan-kechirganlar haqida hikoya qilish) va oldindan tayyorlanmagan (kutilmagan savollarga javoblar qaytarishni iltimos qilish, berilgan mavzu xususida gapirish) bo'lishi mumkin. Nutqning birinchi ko'rinishi duduqlanuvchi uchun juda yengil bo'lgani sababli ikkinchisidan oldin takrorlanadi.

Mustaqil nutqni tarbiyalash uchun namuna sifatidagi ayrim mashqlar: berilgan savolga javob; duduqlanuvchi boshlangan jumlanı yakunlaydi; uning o'zi savol beradi; berilgan so'z asosida jumla tuzadi; jumlanı qaytadan tuzadi; logoped yoki o'rtog'i bilan suhbat; sahnalashtirilgan tomoshalarda ishtirok etish; bayon qilingan voqeani, dramatik matnni so'zlab berish rasm bo'yicha, tomosha qilingan teatr, kino haqida, shaxsiy kuzatishlar haqida, hodisalar to'g'risida so'zlash; telefon orqali suhbatlashish; ma'ruza, bahsda ishtirok etish va hokazo.

Logopedik mashg'ulotlarning nutq materiali mazmuni buzilishining tuzilishiga, yoshga, duduqlanuvchilar guruhiba, duduqlanishning o'tib borishiga, duduqlanuvchining o'z nuqsoniga bo'lgan munosabatiga va boshqa ko'pgina omillarga bog'liq holda o'zgartiriladi. Bunday omillarning hisobga olinishi: duduqlanuvchini tabaqalashtirib chuqur o'rganishni va duduqlanishni bartaraf etish yuzasidan turlicha metodika (yun.metodos-bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot.)larning yaratilishiga imkon beradi.

5-7 yoshli duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan o'yinlar ancha murakkabroq xarakterga ega bo'ladi. Duduqlanuvchi bolalar bilan o'yinlar guruhlarda olib boriladi. Lekin ko'pchilik bolalar yolg'iz o'ynashni xush ko'radilar.

Didaktik (yun.didaktikos-o'rgatuvchi, ta'lim beruvchi)o'yinlar

Bunda nafas, ovoz, eshitish, tovushlar talaffuzini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o'yinlar o'tiladi. (Domino, loto, piramida, qo'g'irchoqlar). Bu o'yinlar ko'rvuva eshituvni rivojlantirishga qaratilgan.

Ashula aytish bilan (olib boriladigan) o'ynaladigan o'yinlar

Duduqlanuvchi bolalar bilan ashulali o'yinlar tashkil etish juda yaxshi samara beradi. Ashulali o'yinlar qo'zg'alish va tormozlanish ashula **protsesslarini** normallashtiradi. Bolalar xor bilan yoki yakka holda aytishlari mumkin.

Harakatlari o'yinlar

Duduqlanuvchi bolalar bilan sekin bajariladigan harakatlari o'yinlar o'tkaziladi. Chunki bolalarda nafas va nutq tempi buzilmasligi kerak.

Shuning uchun oddiy harakat bilan bajariladigan harakatlari o'yinlar bajariladi. Ya'ni koptok, obruch, lenta bayroqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar.

Sportga taalluqli harakatlari o'yinlar: (koptok bilan o'ynash, sharlar bilan o'ynash). Bunday o'yinlarning asosiy maqsadi bolalarning umumiyligi harkati va nutqini mustahkamlashga qaratilgan.

Dramalashtirilgan o'yinlar

Dramalashtirilgan o'yinlar duduqlanuvchi bolalarda tassavur shaxsning shakllanishi, bolalarning o'yin davomida faolligi va nutqini rivojlantirishiga qaratiladi.

“Ovozni eshitish va ko‘rsatish o‘yini”. Bolalar ko‘zlarini yumib o‘tiradilar. Logoped biror ovoz chiqaradigan o‘yinchoqni chaladi, masalan qo’ng’iroqni, surnay, so‘ngra bola ko‘zini olib qaysi o‘yinchoq chalinganini gapirmasdan qo‘li bilan ko‘rsatadi.

Xulosa

Nutq nuqsonlari o’z-o’zidan barxam topmaydi. Bolalar va kattalardagi duduqlanishni bartaraf etishda kompleks (lot.complexys-muakkab) yondoshuv bo’lmasa kerakli natijaga erishib bo’lmaydi. Korreksion ishlar bosqichiga logopedik ritmikani (nutq va nutqning buzilishini tuzatish) kiritish va unda duduqlanuvchi bolalarda ritmika asosida mustaqil nutqni tarbiyalash bolalar uchun yengillik tug‘diradi. Duduqlanuvchi bolalarni faol lug’atini rivojlantirish uchun ichki nutqini rivojlantirish, shuningdek nutqning barcha komponentlarini mashg’ulotlarda, o‘yinlarda, sistemali rivojlantirishni talab etadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1 Mo’manova.L. Amirsaidova.Sh. Djalolova.Z. Hamidova.M. Maxsus psixologiya. Tosh.2016.
- 2 Toshmatova.M. Duduqlanuvchi bolalarda mustaqil nutqni rivojlantirish usullari.Tosh.2013.
- 3 Ayupova. M.Yu. Logopediya Tosh.2007.
- 4 Тихеева Е.И. Развитие речи детей.- М.:Просвещение, 1976.
- 5 Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. –М.,1969.С.135.
6. Maxammadsidiqovna, X. M., & Odilxonovich, S. Q. (2024). BOLALARDA DIQQAT ETISHMASLIGI VA GIPERAKTIVLIK BUZILISHNI KELTIRIB CHIQARUVCHI SABABLARI, NOMOYON BO’LISHI VA XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI. Научный Фокус, 1(10), 85-89.
7. Mashxura, X. (2023). Bolalardagi diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromining ba’zi bir jihatlari. Innovations in Technology and Science Education, 2(14), 574-578.